TARIX

UDK: 92/+342.81(575.1) **DOI: 10.56292/SJFSU/vol28_iss4/a12**

AMIR TEMUR DAVLATI VA OLTIN O‘RDA O‘RTASIDAGI MANFAATLAR TO‘QNASHUVI VA DIPLOMATIK ALOQALARNING BOSHLANISHI

КОНФЛИКТ ИНТЕРЕСОВ И НАЧАЛО ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ГОСУДАРСТВОМ АМИРА ТЕМУРА И ЗОЛОТОЙ ОРДОЙ

CONFLICT OF INTERESTS AND THE BEGINNING OF DIPLOMATIC RELATIONS BETWEEN THE STATE OF AMIR TEMUR AND THE GOLDEN HORDE

Mamajonov Xumoyun Xomidjon o‘g‘li

Mamajonov Xumoyun Xomidjon o‘g‘li – Farg‘ona davlat universiteti O‘zbekiston tarixi kafedrasi o‘qituvchisi.

Annotatsiya

Ushbu maqolada Amir Temur hamda Oltin O‘rda hukmdori o‘rtasida diplomatik munobasatlarning vujudga kelish sabablari va omillari manbalar va ilmiy adabiyotlarga tayangan holda tadqiq etilgan. Ikki hukmdor o‘rtasida diplomatik, siyosiy va harbiy aloqalarning vujudga kelish arafasida mintaqadagi siyosiy vaziyat hamda diplomatik munosabatlardan ko‘zlangan maqsadlar xususida fikr yuritilgan.

Аннотация

В данной статье на основе источников и научной литературы исследуются причины и факторы установления дипломатических отношений между Амир Темуром и правителем Золотой Орды. Накануне установления дипломатических, политических и военных отношений между двумя правителями они обсудили политическую ситуацию в регионе и цели дипломатических отношений.

Abstract

In this article, on the basis of sources and scientific literature, the reasons and factors for the establishment of diplomatic relations between Amir Temur and the ruler of the Golden Horde are investigated. On the eve of the establishment of diplomatic, political and military relations between the two rulers, they discussed the political situation in the region and the goals of diplomatic relations.

Kalit so‘zlar: *Amir Temur,Oltin O‘rda, diplomatik munosabatlar, Movarounnahr, Jo‘ji ulusi, Samarqand, To‘xtamishxon.*

Ключевые слова: *Амир Темур, Золотая Орда, дипломатические отношения, Мовароуннахр, Джоджи улус, Самарканд, Тохтамышхан.*

Key words: *Amir Temur, Golden Horde, diplomatic relations, Movarounnahr, Joji ulus, Samarkand, Tokhtamyshkhan..*

KIRISH

2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”ning “Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar” bo‘limida davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, mamlakatning xalqaro munosabatlarning teng huquqli sub’ekti sifatidagi o‘rni va rolini oshirish, rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, O‘zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo‘shnichilik muhitini shakllantirish kerakligi ta’kidlanadi. Albatta yuqoridagi maqsadlarni qo‘lga kiritishda diplomatiyamiz tarixini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqotning nazariy asoslari sifatida mamlakatimiz va xorijiy tarixshunos olimlari B.Ahmedov, B.Usmonov, M.Abduraimov, A. Muhammadjonov, A.Ziyo, Sh.O‘ljayeva, U.Abdullayev, O.Bo‘riyev, E.Azimov, X.Dadaboyev, A.YU.Yakubovskiy, I.M.Mirgaliyev va boshqa zamonaviy tadqiqotchilarning nazariyalari alohida ahamiyat kasb etadi. Maqolani yozishda tarixiy tadqiqotlar olib borishning tarixiylik, tizimlilik, xolislik va determinizm kabi usullaridan foydalanildi. Xususan, ishda qiyosiy tarxiy, analiz, sintez, retrospektiv kabi umumfalsafiy metodlar qo‘llanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

To‘xtamishxon otasi o‘ldirilganidan so‘ng, panoh istab Amir Temur huzuriga Samarqandga qarab yo‘l oladi. Amir Temur va To‘xtamishxonning birinchi marotaba ko‘rishishlari hijriy 777-yilga, ya’ni milodiy 1375-1376-yillarga to‘g‘ri keladi. Amir Temur o‘z huzuriga To‘xtamishxon kelganini eshitgan mahalda, Xorazm va Sharqiy Turkiston hukmdori Qamariddinga qarshi urushga tayyorgarlik ko‘rayotgan edi. Amir Temur To‘xtamishni kutib olish uchun Tuman Temur o‘zbekni chiqardi. Amir Temur To‘xtamishni yetarlicha izzat-ikrom ko‘rsatib kutib oldi. Bu haqida mavlono Nizomiddin Shomiy quydagicha bayon qiladi: “To‘xtamish o‘g‘lon kelganida, amirlar uni Amir Temur qabuliga olib kirishdi. Hazrati oliylari uni yetarlicha hurmat-ehtirom bilan qarshi oldi. Uni Samarqandga boshlab borib, shohona ziyofat berdi. To‘xtamish va uning hamrohlariga munosib sovg‘a-salomlar ulashdi, tilla va bezaklar, mol va gazmol, ot va xachir, chodir, nog‘ora va bayroq hamda jangovar qo‘shin berdi. O‘tror va Sabron viloyatlariga hokim etib tayinladi”[1,103].

Albatta Amir Temurning To‘xtamishga beradigan yordami o‘zining siyosiy-iqtisodiy asoslariga ega edi. XIV asrning 70-yillari o‘rtalaridayoq Amir Temur O‘rta Osiyoni birlashtirib bir butun davlat tashkil qilish bilan band bo‘lgan yillarda ham, shu bilan birga, o‘z davlatining osoyishta yashay olishi uchun imkon beradigan bir sharoit yaratish, ya’ni atrofida dushman davlatlar bo‘lmasligiga erishish masalasi ustida doimo o‘ylar edi. Yettisuv va Qashqardagi mo‘g‘ul xonlari va Jo‘ji ulusi uni hammadan ko‘ra ko‘proq tashvishga solar edi. Oltin O‘rdadagi to‘s-to‘palonlardan, Mamayning siyosiy ahvolidan, Jo‘ji ulusini qayta tiklashda Oq O‘rda va uning hokimi O‘risxonning qanday ro‘l oynay boshlaganidan Amir Temur yahshi xabardor edi. Oltin O‘rdaning birlashtirilishi, Jo‘ji ulusi qudratining yana tiklanishi, Temurning fikricha, Movarounnahr uchun zararli edi. Chunki qudratli Jo‘ji ulusi istalgan paytda Movarounnahrga xavf tug‘dirishi mumkin edi. Amir Temurning To‘xtamishxonni qo‘llab quvvatlashidan asosiy maqsadi Movarounnahrning siyosiy kelajagini xavfsizlantirish, Oltin O‘rdaning ichki ishlariga aktiv aralashish va bu orqali u yerdagi siyosiy vaziyatni nazorat qilish imkoniga ega bo‘lardi.

To‘xtamish tabiiyki, boshidanoq o‘zini Amir Temurga tobe deb tan oldi. Chunki u yuqorida “in’om etilgan” o‘lkalarni egallashda Amir Temurning harbiy madadiga tayanishni maqsad qilgan edi[2,8].

To‘xtamishxon Amir Temur bergan qo‘shin bilan O‘risxonga qarshi jangga otlandi. O‘risxon To‘xtamishga qarshi o‘g‘li Qutlug‘ Bug‘a boshchiligida qo‘shin yubordi. Ushbu muhorabada Qutlug‘ Bug‘a og‘ir jarohatlanib vafot etdi. Qutlug‘ Bug‘aning o‘limidan jazavaga tushgan tatarlar qo‘shini To‘xtamishga qarshi yopirilib hujumga o‘tdi. Harbiy ishlarda tajribasiz va no‘noq bo‘lgan To‘xtamish mag‘lubiyatga uchraydi va homiysi Amir Temur huzuriga qaytishga majbur bo‘ladi.

Amir Temur mag‘lub bo‘lgan To‘xtamishni birinchi galdagidan ko‘ra katta hurmat bilan qarshiladi va avvalgidan kattaroq qo‘shin berib in’om etilgan hududlarni egallash uchun qaytadan yubordi. Bu payt O‘risxonning o‘g‘li To‘xtaqiya esa Alibek va e’tiborli shahzoda va amirlar bilan ittifoq tuzib To‘xtamishga qarshi jangga hozirlanadilar. To‘xtamish To‘xtaqiyadan qashqatqich zarbaga uchrab qochishga majbur bo‘ladi. Qozonchi Bahodir uni ta’qib qilib, o‘q-yoy zarbi bilan qo‘lini majruh etadi. To‘xtamish dushman ta’qibidan Sirdaryo bo‘yidagi qamishzorga kirib berkinadi. Amir Temur To‘xtamish huzuriga Idigu barlosni yuborib, “podshohlik ishida mardona bo‘lsin va jasur bo‘lsin, dushmanni da’f qilishni vojib bilsin” deb nasihat qiladi. Idigu barlos ushbu qamishzorda To‘xtamishni uchratib qolib, unga izzat-ikrom ko‘rsatib Amir Temur huzuriga – Buxoroga elitadi.

Bu vaqtda Sohibqiron Buxoroda edi. Uning huzuriga Idiguy qochib kelib, O‘risxon lashkar to‘plab To‘xtamishni talab qilib kelayotgani xabarini Amir Temurga yetkazadi. Bu o‘rinda shunga aniqlik kiritib ketish lozimki, bu Idiguyni, Idiguy barlos bilan adashtirmaslik lozim. Bu Idiguy O‘risxon huzuridan qochib kelgan Idiguy Manqut edi.

Bu xabrdan so‘ng Temur huzuriga O‘rsixonning elchilari – Kepak Manqut va Tulujon yetib keladi. Ushbu voqea Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”sida quyidagicha bayon etilgan: “To‘xtamish mening o‘g‘limni o‘ldirgan va sizning viloyatingiz tomon borgan. Dushmanni menga topshiring, aks holda jangga joy hozirlang”[3,104]! Amir Temur ushbu nomaga quydagicha javob qilgan: “Muruvvatlilik qoidasi va davlat arboblarining urf-odatlarida biron davlatdan panoh istab kelgan odamni dushman qo‘liga topshirish ravo ko‘rilgaymu?! Bunday bo‘lishi amri maholdur. Albatta bu xususda janjalu nizo ko‘tarilsa, zaruratan jangga tayyor bo‘lish kerak”[4,104].

TARIX

Haqiqatan ham Amir Temur O‘risxonga qarshi jang boshladi. Sirdaryodan kechib o‘tib, O‘trorning bepayon tekisligida qarorgoh tikladi. O‘risxonning qo‘shini esa mavlono Sharafiddin Ali Yazdiyning ma’lumotlariga qaraganda, O‘trordan 24 farsax naridagi Oq O‘rda markazi – Sig‘noq shahrida joylashgandi. O‘sha yili qish qattiq kelib, tinmasdan yomg‘ir va qor yog‘ishi har ikki tomon qo‘shinining harakatiga o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Sohibqiron dushmanga qarshi qo‘shinining ilg‘or qismini Yoruq Temur, Muhammad Sultonshoh, Xitoy Bahodir va Muboshirni bosh qilib yubordi. Ular dushmanning uch ming kishilik ilg‘or qismini mag‘lubiyatga uchratdi. Ammo bu jangda Yoruq Temur va Xitoy Bahodirlar halok bo‘lishdi. Shunday qilib kichik to‘qnashuvlarni inobatga olmagan holda, deyarli uch oy bir-birlariga qarshilik ko‘rsatmasdan ro‘baro turdilar. Shundan so‘ng Amir Temur Keshga qaytib, bir necha oydan so‘ng To‘xtamishni o‘ziga qacharchi - yo‘lboshchi qilib jangga otlandi. Amir Temur Jayronqamishga yetganida O‘risxonning vafot etganidan xabar topdi. Amir Temur To‘xtamishga zarur qurol-aslaha, yetarlicha qo‘shin qoldirib, o‘zi Samarqandga qaytadi.

O‘rsixondan so‘ng taxtga o‘tirgan o‘g‘li To‘xtaqiya ham ko‘p o‘tmay vafot etadi. To‘xtaqiyadan so‘ng taxtga Temur Malik o‘g‘lon o‘tirgan edi. Uchinchi muhorabada ham To‘xtamish Temur malikdan mag‘lubiyatga uchraydi. Manbalarda To‘xtamishning joniga Amir Temur sovg‘a qilgan O‘g‘lon nomli ot oro kirganligi aytiladi. To‘xtamish uchinchi marotaba ham mag‘lubiyatga uchrab Amir temur huzuriga yo‘l oladi. Albatta Amir Temur To‘xtamishning uchinchi marotaba ham mag‘lubiyatidan so‘ng uning harbiy layoqatiga shubha bilan qaray boshladi. Ammo kuchsizlanib qolgan Oltin O‘rda taxtiga o‘z odamini o‘tqazish, Amir Temur tashqi siyosatining muhim bir qismlaridan biri edi.

Bu paytga kelib Temur Malik davlat ishlarini bir chetga surib qo‘yib, kunini maishatda o‘tkazar edi. Mulozimlarning undan ko‘ngli qolib, To‘xtamishga mayl bildira boshladilar. Amir Temur Oq O‘rdaning ichki hayotida ro‘y berayotgan har bir o‘zgarishlardan xabardor bo‘lib turardi. Dastlab To‘xtamish O‘risxon ta’qibidan qochib kelganda uning yonida O‘rung Temur ismli shaxs ham bor edi. O‘rsixon va To‘xtamish o‘rtasida bo‘lgan janglardan birida O‘rung Temur asirga tushib qoladi. O‘risxon uning qonidan o‘tadi. Lekin O‘rsixon vafotidan so‘ng O‘rung Temur Amir Temur huzuriga qochib keladi. Amir Temur O‘rung Temurdan Temur Malik va uning ahvoli haqida surishtiradi. U o‘zi yahshi xabardor bo‘lgan narsalarni – Temur Malik Sharobga muk tushgani, kechayu-kunduz maishatbozlikdan chiqmay qolgani, choshgohga qadar uhlashi, arzga kelganlar qanchalik zarur ishi bo‘lmasin, baribir uni uyg‘otishga ju’rat etolmasligini aytib berdi. Shu boiskim odamlar undan qochib, To‘xtamishga xayrixohlik bildirayotganini ta’kidladi.

Ushbu ma’lumotlardan so‘ng Amir Temur To‘xtamishga to‘rtinchi marotaba imkon berishga qaror qiladi. Hijriy 780-yilda (1378-1379) Sig‘noq sari jo‘natib, o‘zi ishongan amirlarni Amir Tumon Temur, O‘rung Temur, G‘iyosiddin Tarxon, Baxtiyxoja va Amir Bangilarni ulkan lashkar bilan unga qo‘shib berdi. Bu paytda Temur Malik Qoratolda qishlayotgan edi. To‘xtamishxon Qoratolda qishlayotgan Temur Malikka hujum qilish haqida Temurdan buyruq oldi va uni mag‘lub etdi.

To‘xtamishxon ushbu g‘alaba xabarini Amir Temurga yetkazish uchun O‘rusxo‘jani elchi qilib yubordi. Amir Temur ushbu g‘alaba sharafiga katta ziyofat berdi. O‘rusxo‘jaga turli iltifotlar ko‘rsatib, sovg‘a-salomlar bilan To‘xtamishxon huzuriga jo‘natdi.

O‘rung Temur va Oq Bug‘alar tirikligida To‘xtamishni Amir Temur bilan doimo yahshi diplomatik aloqada va munosabatlarning buzilmasligi tarafdori bo‘lib kelgan. Ular To‘xtamishga doimo shunday maslahat berishgan: “Amir Sohibqiron senga ko‘p in’om va zo‘r tarbiyatlar qildi. Uning senga ko‘rsatgan iltifot va homiyligi haqqini sen bajo keltirish ham qarz, ham farzdir. Hamisha ul zoti oily murruvatini nazarda tutib, turli munosib xizmatlar bilan unga yaqinlashgin va xolis (munosabatlaring) asosini quduratdan asragin, chunki sen bu maqbul xislatlaring sharofati va sohibi ne’matning bergan ne’matlari haqqini tan olishing barakati tufayli davlating bayroqlari kun sayin balandroq ko‘tariladi, jahon ahli seni bu ishingni ma’qullab, tahsin aytadi. Shu bilan birga olam vaziyatiga ishonch yo‘q. Agar, xudo ko‘rsatmasin, kunlarning birida davlat egasi yana toshga qoqilarkan, (Amir Sohibqironning) yordamiga tayansa bo‘ladi, va uning davlati panohida qayta tiklanish mumkin”[5,107].

XULOSA

Amir Temur davlati va Oltin O‘rda o‘rtasidagi munosabatlar dastlab har ikki tomonning siyosiy maqsadlari mushtarakligi natijasida vujudga keldi va rivojlandi.

Sohibqiron Amir Temur yillar davomidagi Oltin O‘rda va mo‘g‘ul hukmdorlarining Movarounnahrga bosqin uyushtirishlariga butunlay barham berishni maqsad qilgan edi. Ana shu maqsad yo‘lida Oltin O‘rdada hokimyat tepasiga o‘ziga tarafodor bo‘lgan hukmdorni o‘tqazish orqali Movarounnahrning siyosiy kelajagini xavfsizlantirishni ko‘zlagan edi. Amir Temur doimo murakkab vaziyatni siyosiy muzokaralar yoki mohirona diplomatiya bilan hal qilishga intilgan. Sohibqiron tashqi va ichki siyosatida urush doimo urush so‘nggi chora sifatida qo‘llangan. To‘xtamish bilan munosabatlarda ham doimo yuqorida keltirilganlarga amal qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Шомий Низомиддин. Зафарнома/Форс тилидан ўгирувчи – Ю. Ҳакимжонов. Таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва масъул муҳаррир – А. Ўринбоев. Изоҳлар ва луғатларни тузувчи – Ҳ. Кароматов (жуғрофий номлар изоҳи – О. Бўриевники). Ҳофизи Абрунинг «Зафарнома»га ёзган «Зайл»и – («Илова»)ни форсийдан ўгирувчи ва изоҳларни тузувчи – О. Бўриев. - Т.: Ўзбекистон., 1996. 103-б.

2. Абдураимов М. Темур ва Тўхтамиш // Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи – О.Абдуллаев – Т.: Ғафур Ғулом., 2000. 8-б.

3. Шомий Низомиддин. Зафарнома/Форс тилидан ўгирувчи – Ю. Ҳакимжонов. Таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва масъул муҳаррир – А. Ўринбоев. Изоҳлар ва луғатларни тузувчи – Ҳ. Кароматов (жуғрофий номлар изоҳи – О. Бўриевники). Ҳофизи Абрунинг «Зафарнома»га ёзган «Зайл»и – («Илова»)ни форсийдан ўгирувчи ва изоҳларни тузувчи – О. Бўриев. - Т.: Ўзбекистон., 1996. 104-б.

4. Шомий Низомиддин. Зафарнома/Форс тилидан ўгирувчи – Ю. Ҳакимжонов. Таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва масъул муҳаррир – А. Ўринбоев. Изоҳлар ва луғатларни тузувчи – Ҳ. Кароматов (жуғрофий номлар изоҳи – О. Бўриевники). Ҳофизи Абрунинг «Зафарнома»га ёзган «Зайл»и – («Илова»)ни форсийдан ўгирувчи ва изоҳларни тузувчи – О. Бўриев. - Т.: Ўзбекистон., 1996. 104-б.

5. Шомий Низомиддин. Зафарнома/Форс тилидан ўгирувчи – Ю. Ҳакимжонов. Таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва масъул муҳаррир – А. Ўринбоев. Изоҳлар ва луғатларни тузувчи – Ҳ. Кароматов (жуғрофий номлар изоҳи – О. Бўриевники). Ҳофизи Абрунинг «Зафарнома»га ёзган «Зайл»и – («Илова»)ни форсийдан ўгирувчи ва изоҳларни тузувчи – О. Бўриев. - Т.: Ўзбекистон., 1996. 107-б.

6. Амир Темур жаҳон тарихида.-Т.: Шарқ, 1996. - 295 б.

7. Аҳмедов Б. Амир Темур. -Т.:Мерос, 1995. - 640 б.

8. Аҳмедов Б. Амир Темурни ёд этиб. -Т.: Ўзбекистон, 1996.- 368 б.

9. Аҳмедов Б. Соҳибқирон Темур. – Т.: Нур, 1996.

10. Усмонов Б. Амир Темур давлати. Ўқув-услубий қўлланма. – Т.: Адабиёт учқунлари, 2016. – 126 б.

11. Ўлжаева Ш. Амир Темур дипломатияси – Т.: IJOD PRESS, – 156 б..

12. Якубовский А.Ю. Падение Золотой Орды. В кн.:Греков Б. Д., Якубовский А.Ю. Золотая Орда и ее падение. – М. – Л., 1950, – С. 216-428.

13. Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. -Т.: Фан, 1993. - 56 б.

14. Усмонов Б.А. Амир Темур ҳаёти ва давлатчилик фаолиятининг Россия тарихшунослигида ёритилиши (XVIII-XX асрлар): Тарих фан. ном. дисс. – Тошкент: ЎзР ФА ШИ, 2004. – 166 б.